

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Karimov Bobir “MAHALLABAY” ISHLASH TIZIMI NEGIZIDA INSON SALOHİYATINI RO‘YOBGA CHIQRISH KOMPETENSIYALARI.....	5
2. Kulbekova Nasiba INSON SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA TA‘LIM TIZIMINING O‘RNI.....	12
3. Инаков Комил, Абдугафурова Чарос МОЛОДЕЖЬ КАК РЕСУРС РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА.....	19
4. Узакова Зарина ПОТРЕБНОСТИ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ (ЧС): РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА.....	27
5. Dulanbayeva Oygul MUALLIFLIK STRATEGIYASI ZAMONAVIY MUTOLAA DIDINI SHAKILLANTIRISH MEKANIZMI SIFATIDA.....	34
6. Hojiyev Zavqiddin DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	40
7. To‘raev Odiljon AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH ORQALI IJTIMOIIY XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	50
8. To‘raxo‘jaeva Ra‘no DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI XODIMLARINING MAXSUS KOMPETENSIYALARI.....	59
9. Abdikadirova Nigora INSON SALOHİYATI: NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	66
10. Tadjikhojaev Botir DAVLAT BOSHQARUVIDA XARIZMATIK SHAXSLAR FAOLIYATINING SOSIOLOGIK TAHLILI.....	71
11. Xolmurodov G‘ulom O‘ZBEKISTONDA MAHALLA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	78
12. Axmedova Shaxnozaxon OILA-NIKOH MUNOSABATLARINI O‘RGANISHDAGI SOTSIOLOGIK NAZARIY YONDASHUVLAR.....	91


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Hojiyev Zavqiddin,

O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15132690>

ANNOTATSIYA

Maqolada davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to‘qnashuvi, uning nazariy jihatlari va qarshi kurashish masalalari yoritilgan. Xususan, olimlarning manfaatlar to‘qnashuviga oid yondashuvlari, davlat xizmatchisi xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar, shaxsiy va jamoaviy motivatsiya o‘rtasidagi kurash masalalari sotsiologik ochib berilgan. Ushbu sohada mamlakatimizdagi hamda anglo-sakson va roman-german modellaridagi xorijiy davlatlarning huquq normalari, ularning ijtimoiy jihatlari va farqlovchi xususiyatlari tahlil qilingan. Ko‘rsatib o‘tilgan masalalar anketa so‘rovlari va rasmiy ma‘lumotlar bilan bog‘lagan holda yoritilib, sohani yaxshilash bo‘yicha tegishli takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: davlat fuqarolik xizmati, manfaatlar to‘qnashuvi, manfaat, motiv, cheklov, majburiyat, deklaratsiya, korrupsiya, odob-axloq, jamoatchilik nazorati.

Хожиев Завкиддин,

Независимый соискатель

Национального университета Узбекистана,

Доктор философии по социологическим научкам (PhD)

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНФЛИКТА ИНТЕРЕСОВ В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЕ

АННОТАЦИЯ

В статье освещены вопросы конфликта интересов в государственной гражданской службе, его теоретические аспекты и борьбы с ним. В частности, социологически раскрыты подходы ученых к конфликту интересов, противоречия, возникающие в ходе выполнения служебных полномочий (обязанностей), а также вопросы борьбы между личной и общественной мотивациями. Проанализированы правовые нормы местной (республиканской) и зарубежной (англо-саксонской и романо-германской) моделей в данной сфере, их социологические аспекты и отличительные свойства. Указанные вопросы освещены в связке с данными официальных источников и анкетирования, а также выдвинуты соответствующие предложения по совершенствованию сферы.

Ключевые слова: государственная гражданская служба, конфликт интересов, интерес, мотив, ограничение, обязательство, декларация, коррупция, мораль, общественный контроль.

Khojiev Zavkiddin,Independent researcher of the National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophy in Sociology (PhD)**SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF CONFLICT OF INTEREST IN THE STATE CIVIL SERVICE****ABSTRACT**

The article covers the issues of conflict of interest in the state civil service, its theoretical aspects and the fight against it. In particular, the approaches of scientists to the conflict of interest, contradictions arising in the course of performing official powers (duties), as well as the issues of the struggle between personal and public motivations are sociologically revealed. The legal norms of the local (republican) and foreign (Anglo-Saxon and Romano-Germanic) models in this area, their sociological aspects and distinctive properties are analyzed. The specified issues are covered in conjunction with the data of official sources and questionnaires, and corresponding proposals for improving the area are put forward.

Keywords: state civil service, conflict of interest, interest, motive, restriction, obligation, declaration, corruption, morality, public control.

KIRISH

Jamiyat rivojlanishining bugungi bosqichida davlat fuqarolik xizmatida professional xizmatini amalga oshiruvchi xodimlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu professional faoliyatni amalga sohasida turli ko'rinishdagi konfliktlar yuzaga keladi. Sotsiologiyada konfliktlar shaxs va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, fikrlar va qarashlar o'rtasidagi nomutanosibliklar, manfaatlar to'qnashuvi hamda tomonlarning o'z maqsadiga erishish uchun bir biriga nisbatan qarshi turish sifatida talqin qilinadi.

Ijtimoiy konfliktlar ijtimoiy ziddiyatlarning chegaraviy holatida sodir bo'lib, individlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi kurashishning shakllari sifatida namoyon bo'ladi. Bunda individlar va ijtimoiy guruhlar o'zlarining asosiy e'tiborini iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy manfaatlar va maqsadlariga erishishga qaratadi. Bunday vaziyatda asosiy maqsad manfaatlariga qarshi turuvchi raqibning ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bugungi kunda davlat fuqarolik xizmatidagi manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va uni hal qilish dolzarb bo'lib qolmoqda. Manfaatlar to'qnashuvi masalasi boshqa subyektlarning manfaatlariga tegishli bo'lishi e'tiborga olinadigan bo'lsa, mazkur muammo shaxsning ichki xarakter xususiyati doirasidan tashqarisida bo'lib qoladi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy adabiyotlarda manfaatlar to'qnashuvi mavzusi jamiyat boshqaruvi (public administration), huquqshunoslik, siyosatshunoslik, etika, iqtisodiyot, sotsiologiya, psixologiya sohalarida keng qamrovli ravishda o'rganiladi. Ta'kidlash lozimki, davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvi asosan korrupsiya kabi salbiy illatning oldini olish, davlat boshqaruvining shaffofligi va hisobdorligi, xizmatchilarda yuksak etika standartlarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq.

Sotsiologik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, manfaatlar to'qnashuvi jamiyatda mavjud qadriyatlar, an'analar, norasmiy munosabatlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Buni davlat fuqarolik xizmatchilari ko'p hollarda oila, mahalla, guruh yoki siyosiy doiralar bilan bog'liq bo'lgan sotsial guruhlar ta'sirida qaror qabul qilish imkoniyatiga egaligi bilan izohlash mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy adabiyotlarda «manfaatlar to'qnashuvi» tushunchasiga bir qator izohlar berilgan bo'lib, ularning barchasini zamirida mansabdor shaxsning shaxsiy manfaatlar va davlat majburiyatlari o'rtasidagi konflikt aks etadi hamda shaxsiy manfaatlar mansabdor shaxsning xizmat majburiyatlari va vazifalarini zarur darajada ijro etilishiga ta'sir ko'rsatadi [1]. "To'qnashuv" so'zi

lotincha “conflictus” soʻzidan olingan boʻlib, qarama-qarshilik, qarama-qarshi fikr, kelishmovchilik va nizo, qarama-qarshi kuch va fikrlarning toʻqnashuvi maʼnolarini anglatadi [2].

Nemis sotsiologi va siyosiy arbobi Darendorf Ralf (1929) ijtimoiy nizo (konflikt) konsepsiyasining asoschilaridan biri boʻlib [3], u jamiyatni eng tor munosabatlardan eng keng ijtimoiy aloqagacha boʻlgan munosabatlar turi sifatida izohlagan. Har bir guruhda va jamiyatda kishilar maʼlum bir vazifa yoki holatning egasi sifatida harakat qiladilar. Shunday ekan har bir vaziyatga maʼlum bir ijtimoiy rol toʻgʻri keladi, bunda yon-atrofdagilarning istak va mulohazalari unchalik ahamiyatli emas [4].

Sotsiologiyaning mumtoz namoyandalari M.Veber oʻz asarida rasmiy huquqiy hujjatlar asosidagi ratsional byurokriyaning ahamiyati haqida toʻxtalib oʻtgan. Xususan, byurokratik lavozimdagi amaldor tomonidan oʻz mansab vakolatlarini shaxsiy yoki guruh manfaatlari yoʻlida foydalanishi natijasida byurokriyaning rivojlanib borishini koʻrsatib oʻtgan. Davlat boshqaruvida “patrimonial” (davlatni shaxsiy mulk sifatida qabul qilish) yoki “byurokriya” elementlarning saqlab qolinishi davlat xizmatida manfaatlar toʻqnashuvi holatlarini keltirib chiqarishini taʼkidlagan [5].

Professor A.Xolbekov oʻz asarida davlat xizmati, shuningdek, rahbarlik faoliyatini takomillashtirish masalalari byurokriya hodisasi bilan bogʻliq. Bu boshqaruv va amaldorlar oʻrtasidagi aloqaga daxldor masaladir. Ommaviy maʼmuriy faoliyat – davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning hal qiluvchi omilidir. Davlat xizmati hokimiyat va boshqaruvning muhim instituti sifatida byurokriya bilan bogʻlanib ketishini taʼkidlaydi [6].

R.Merton oʻz asarida “rol” va «rol bilan bogʻliq konfliktlar» tushunchalarini qoʻllagan boʻlib, davlat xizmatchisi xizmat majburiyatlarini bajarish chogʻida qarama-qarshiliklarga duch keladi, vazifalarni bajarish bilan bogʻliq konfliktlar shakllanadi va u manfaatlar toʻqnashuvi shaklida rivojlanib boradi [7]. Ushbu konflikt sotsiologik nuqtai nazaridan davlat xizmatchisi qaysi rolni ustun qoʻyishi bilan talqin qilinadi.

L.Kozer va R.Darendorflarning ijtimoiy konfliktlar nazariyasini davlat fuqarolik xizmatiga ekstrapolyatsiya qilinadigan boʻlsa, jamiyat tomonidan rasmiy oʻrnatilgan manfaatlar va norasmiy guruhlar manfaatlari oʻrtasida qarama-qarshiliklar yuzaga kelishi natijasida doimiy konfliktlar manbasi boʻlib xizmat qiladi [8].

Manfaatlar toʻqnashuvining mohiyatini toʻgʻri tushunishda manfaat tushunchasiga aniqlik kiritish lozim. Sotsiologik nuqtai nazardan manfaat – insonning turli obyektlarga nisbatan farvonlikka erishish uchun faol yoʻnalganligi sifatida izohlanadi [9]. Manfaat – ijtimoiy subyektlar faoliyatining real sababi boʻlib, shaxs yoki ijtimoiy guruhlarining bevosita istagi va motivatsiyasi asosidagi maʼlum ehtiyojlarni qondirishga yoʻnaltiriladi. Jamiyat esa munosabatlarni birlashtiruvchi murakkab ijtimoiy tuzilma boʻlib, subyektlarning hamkorligi doirasida oʻzaro manfaatlar bir-biriga zid yoki qarama-qarshi boʻlishi mumkin.

Manfaat toʻqnashuvini sotsiologik jihatdan tahlil qilar ekanmiz «davlat manfaatlari» va «jamiyat manfaatlari» tushunchalarini qoʻllash chegaralarini farqlab olish kerak boʻladi. Taniqli olim J.J.Russoning “jamiyat shartnomasi” konsepsiyasida “jamiyat” va “davlat” tushunchalari bir-biriga oʻxshash tarzida qoʻllanilgan. Olimning pozitsiyasiga koʻra, insonlar oʻz erkinliklarini jamiyat shartnomasiga asosan cheklaydilar va uni hokimiyatni amalga oshirish uchun hukumatga beradilar. Hukumat esa oʻz navbatida xavfsizlik va tartibni taʼminlash orqali, ularning manfaatlarini eʼtiborga olgan holda insonlarning asosiy ehtiyojlarini qondiradi [10].

N.Makiavelli ham oʻz qarashlarida davlat va jamoatchilik tushunchalarining bir-biriga toʻliq mos kelmasligi toʻgʻrisida soʻz yuritib, u axloqning jamoatchilik va siyosiy jihatlarini koʻrsatib oʻtadi. Bunda jamoatchilik sohasiga mos boʻlgan jihatlari davlat sohasiga ham muvofiq keladi. Xususan, davlat tomonidan jamiyatga taalluqli manfaatlar toʻgʻrisida soʻz yuritilganda davlat va jamoatchilik tushunchalari bir-biriga mutanosib boʻladi. Boshqa holatlarda davlatning asosiy harakati bosh maqsadga erishish, yaʼni hukumatning kafolati sifatida davlatchilikni va hokimiyatni saqlash boʻlib qoladi. Bunday maqsadlarga erishishdagi xatti-harakatlar har doim ham xalq yoki jamoatchilik manfaatlariga mos kelmasligi mumkin [11].

Manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurashish Konvensiyasida «manfaatlarining mos kelmasligi» va «manfaatlar qarama-qarshligi» tushunchalari qo‘llaniladi [12].

Shuningdek, ushbu xalqaro tashkilotning “Antikorrupsiyaviy instrumentariylar” (United Nations Anti-Corruption Toolkit) qo‘llanmasida korrupsiyaning ko‘plab shakllari mansabdor korrupsioner shaxsning professional faoliyatini va uning shaxsiy manfaatlari to‘qnashuviga aloqadorligi ko‘rsatib o‘tilgan [13].

Yevropa Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) Davlat xizmatida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha ko‘rsatmalari deb nomlanuvchi dasturiy hujjatda ham manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi aniq belgilangan bo‘lib, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari davlat xizmatchilari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi oldini olish, aniqlash va boshqarish mexanizmlari bo‘yicha tavsiyalarni o‘zida mujassamlashtiradi [14].


Bugungi kunda “manfaatlar to‘qnashuvi” tushunchasi davlat boshqaruvi sohasidagi jarayonlar va hodisalarning xarakter xususiyatdani kelib chiqqan holda davlat fuqarolik xizmati bilan uzviy bog‘liq jarayon bo‘lib qolmoqda.

Davlat fuqarolik xizmatidagi konfliktlar ijtimoiy tabiatiga ko‘ra boshqa konfliktlar bilan o‘xshash bo‘lsa-da, davlat boshqaruvi sohasida ijtimoiy-mehnat munosabatlari xarakteridagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ta’kidlash lozimki, davlat hokimiyati organlaridagi konfliktlar nafaqat ichki tashkiliy oqibatlarni keltirib chiqaradi, balki davlat boshqaruvi faoliyati sifatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bunday harakatlar natijasida jamiyat ijtimoiy muhiti holatini kuchsizlantirishga va jamoatchilik o‘rtasida davlat xizmatiga nisbatan bo‘lgan ishonchining pasayishiga olib keladi. Davlat fuqarolik xizmatini o‘tash davomida xizmatchilar tomonidan turli nizoli va konfliktli holatlar bilan to‘qnashadilar.

Bunday konfliktlar jamiyat rivojlanishining umumiy qarama-qarshiliklari, tashkiliy tuzilma faoliyat ko‘rsatishining qonuniyatiga va davlat xizmatchilari faoliyatining mazmuniga ta’sir ko‘rsatishiga olib keladi. Davlat xizmatchisi shaxsiyatini sindirish orqali konfliktlar alohida individ, jamoa va davlat xizmati ijtimoiy institutiga jiddiy ta’sir ko‘rsata boshlaydi.

Davlat xizmatining konflikt holatini shartli ravishda ikkiga, ya’ni ichki va tashqi holatga bo‘lish mumkin. Mazkur holat davlat funksiyasini amalga oshirishda o‘zaro hamkorlik qiladi, kesishadi va ayrim tarkibiy qismlari bilan aralashib ketadi. Quyidagi rasmda manfaatlar to‘qnashuvini nazariy jihatdan tasniflab olamiz (1-rasm).



1-rasm. Manfaatlar to‘qnashuvi tavsifi

Xorijiy davlatlarning mazkur sohaga oid qonunchiligi ham bir-biridan farq qiladi. Ayrim xorijiy manbalarda manfaatlar to‘qnashuvining real, potensial va taxmin qilinadigan turlarini ajratib ko‘rsatishadi:

1) real manfaatlar to‘qnashuvi (actual conflict of interest) - xodimning, uning yaqin qarindoshlarining yoki tashkilot bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari) tashkilot manfaatlariga bevosita yoki bilvosita qarama-qarshi bo‘lgan vaziyat;

2) potensial manfaatlar to‘qnashuvi (potential conflict of interest) – xodim va uning yaqin qarindoshlarining yoki tashkilot bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy va boshqa manfaatlari) muayyan vaziyatlar yuzaga kelganda, ular tashkilot manfaatlariga qarama-qarshi bo‘lishi va tashkilot xodimlari tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

3) taxmin qilinadigan manfaatlar to‘qnashuvi (alleged conflict of interest) - xodim va uning qarindoshlarining yoki tashkilot bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning shaxsiy manfaatlarini barvaqt aniqlash hamda yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan vaziyat. Bunda manfaatlar to‘qnashuvi shakllanish risklarini aniqlash va baholash tizimini shakllantirish bo‘yicha tegishli audit yoki antikorrupsiyon nazoratni takomillashtirish talab qilinadi.

Davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to‘qnashuvini (conflict of interest) – bu davlat fuqarolik xizmatchisining shaxsiy yoki guruhviy manfaatlari (mulkiy, oilaviy, siyosiy va boshqalar) ular tomonidan bajariladigan xizmat majburiyatlari bilan to‘qnash kelishi natijasida yuzaga keladigan holat sifatida talqin qilinadi. Bunday holat davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan qaror qabul qilishida xolislik va adolat tamoyillariga ta‘sir qilishi, turli huquqbuzarliklar qatorida korrupsiya holatlariga zamin yaratishi mumkin. Shu bois manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, baholash va undan saqlanish mexanizmini yaratish har qanday davlat boshqaruv tizimida muhim vazifa sifatida qabul qilinadi.

Ba‘zi yondashuvlarga ko‘ra, davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishda huquqiy cheklovlar orqali kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Ularning fikricha, davlat fuqarolik xizmatida “taqiqlangan” yoki “taqiqlanmagan” manfaatlar turlari rasmiy jihatdan aniq va ravshan belgilab berilmasligi mumkin. Shu sababli, xizmatchilarda etika madaniyatni yuksaltirish, jamoatchilik nazorati va shaffoflik prinsiplari amaliy jihatdan real hayotga yaqin tadbirlardan bo‘lib qoladi. Boshqa yondashuvlarda esa, aksincha, davlat fuqarolik xizmatida qat‘iy belgilangan huquqiy cheklovlar, deklaratsiya mexanizmlarini joriy etish, mansabdor shaxslar va ularning oila a‘zolari uchun qator cheklovlarni tatbiq qilish samarali ekanligi ta‘kidlanadi.

Bugungi kunda amaliyotda manfaatlar to‘qnashuvi yuridik nuqtai nazardan me‘yoriy munosabat sifatida ko‘riladi va uni hal qilishda sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirishga, monitoring qiluvchi mustaqil idoralar va komissiyalar tashkil etishga ustuvorlik beriladi. Postmodern yondashuvida esa, inson psixologiyasi, madaniy qadriyatlar, ma‘naviy tamoyillar asosiy o‘rin egallaydi. Ular tomonidan qat‘iyatli, jamiyat manfaatini ustun qo‘yadigan, fidoyi kadrlarni tayyorlash, tashkilotda shaffof muhitni yaratish orqali manfaatlar to‘qnashuvi xavfini kamaytirish muhim vazifa sifatida belgilanadi. Iqtisodiy va siyosiy mazmundagi konfliktlardan farqli ravishda, manfaatlar to‘qnashuvi nafaqat qonunlar bilan, balki ijtimoiy institut sifatida davlat fuqarolik xizmatidagi ijtimoiy normalar, qoidalar va an‘analar asosida ham tartibga solinadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli tizimli islohotlar jamiyatda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘lib, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Biroq, hayot hech qachon bir joyda to‘xtab qolmaydi. Chunonchi shaxs hamda jamiyat manfaatlarini yana-da samaraliroq himoya qilish, korrupsiyaning oldini olishning huquqiy mexanizmlarini yana-da takomillashtirish ehtiyojini vujudga keltirdi [15].

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi «Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida»gi O‘RQ-931-son, 2017-yil 3-yanvardagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘RQ-419-son, 2022-yil 22-avgustdagi «Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida»gi O‘RQ-788-son qonunlarida manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z

lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat sifatida belgilangan [16].

Boshqa rasmiy manbalarda manfaatlar to'qnashuvi – bu ishonib topshirilgan majburiyat va majburiyat egasining shaxsiy manfaatlari o'rtasidagi ziddiyat sifatida izohlangan [17]. Shuningdek, “Davlat xaridlari to'g'risida”, “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”, “Sudlar to'g'risida”, “Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida”gi va boshqa tegishli qonunlarda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish bo'yicha umumiy talablar belgilab berilgan.

Ushbu tushunchaning qonunda bu tarzda belgilanishi davlat fuqarolik xizmati tizimidagi qadriyatlar va ustuvorlikning tarkibiy tuzilishini belgilab beradi. Ya'ni, davlat fuqarolik xizmatiga kiruvchi nomzod davlatga va jamiyatga vijdonan xizmat qilishda o'zining shaxsiy munosabatini aniqlab oladi. Bunday vaziyatda davlat fuqarolik xizmatchisini shaxsiy manfaatlari ongli ravishda davlat xizmatidagi lavozim majburiyatlari doirasida davlat va jamiyat manfaatlariga bo'ysundiriladi. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-avgustdagi “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi O'RQ-788-son Qonunida manfaatlar to'qnashuvi holatlarida davlat fuqarolik xizmatchilarining xatti-harakatlari aniq belgilab berilgan. Qonunga muvofiq davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, davlat fuqarolik xizmatchisi o'zining rahbariga yoki yuqori turuvchi davlat organiga darhol yozma shaklda xabar qilishi lozim bo'ladi.


Davlat fuqarolik xizmatchilarining professional faoliyati va lavozim majburiyatlarini bajarishga xulq-atvor normalari nuqtai nazaridan yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 595-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining Namunaviy qoidalariga muvofiq, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda xodimlar o'zining rahbarini darhol xabardor qilishi, bunday holat to'g'risida ma'lumot olgan rahbar bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishga majburligi belgilab qo'yilgan [18].

Bunday vaziyatda davlat organining rahbari yoki yuqori turuvchi davlat organi ushbu to'qnashuvni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishi shart bo'ladi. Manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda qonuniylikni ta'minlashi, fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning qonuniy manfaatlari ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, xolislik va korrupsiyaga nisbatan murosasiz prinsiplariga asoslanishi lozim. O'rnatilgan tartibga ko'ra, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish sohasidagi nazorat ichki va tashqi shakllarda amalga oshiriladi. Tashqi nazorat O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan bilvosita, ichki nazorat esa vakolatli maxsus bo'linma (ya'ni, inson resurslarini boshqarish bo'linmalari va (yoki) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens-nazorat) tuzilmalari) tomonidan bevosita amalga oshiriladi. Ichki nazorat tuzilmalari tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish sohasida odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi [15]. Quyidagi rasmda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hollarda ko'riladigan choralarni turkumlab olamiz (2-rasm).

Yuqoridagi rasmda mamlakatimiz tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hollarda ko'riladigan asosiy tadbirlar ko'rsatib o'tilgan. Lekin, ushbu choralardagi mehnat shartnomasini bekor qilish holati eng oxirgi darajadagi qaror bo'lib, ungacha davlat fuqarolik xizmatchisining shaxsiy manfaatlari tashkilot faoliyatiga yoki manfaatlariga zid bo'lgan holatda jarayonni muvofiqlashtirish imkoniyati bo'lmaganda qo'llaniladi.

Mazkur holat bo'yicha davlat xizmatining anglo-sakson (ochiq) va roman-german (kontinental) modellaridagi ayrim xorijiy mamlakatlarning tajribalarini sanab o'tamiz: qo'shimcha mashg'ulot bilan shug'ullanishini cheklash; shaxsiy va oilaviy daromadlarini deklaratsiya qilish; shaxsiy mol-

mulkni deklaratsiya qilish; sovg'alarni deklaratsiya qilish; shartnomalarni boshqarishga oid shaxsiy manfaatlarini deklaratsiya qilish; qarorlar qabul qilish yoki ovoz berish jarayoniga tegishli bo'lgan manfaatlarini deklaratsiya qilish; mulk, daromad va manfaatdorligi to'g'risida ommaviy deklaratsiya qilish; xususiy kompaniyalardagi shaxsiy yoki oilaviy huquqini cheklash va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.



2-rasm. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hollarda ko'riladigan choralar

Ko'rsatib o'tilgan tartibni buzgan xodimlarga intizomiy, ma'muriy va jinoiy jazo turlari bilan bog'liq choralari qo'llanilishi mumkin. Masalan, intizomiy choralari – ish haqini to'lashni to'xtatish yoki ishdan bo'shatish; ma'muriy jazo choralari – muayyan muddatga davlat fuqarolik xizmatida ishlashni cheklash, noqonuniy olingan daromadni qaytarish, jarima qo'llash, axloqiy choralar (tashkilotning rasmiy sayti yoki byulletenida noqonuniy faoliyat bo'yicha ma'lumot e'lon qilish); jinoiy jazo sifatida – davlat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazilgan holatlarda muayyan muddatga qamoqqa olish chorasi qo'llaniladi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi lavozim majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq keng huquq va vakolatlarga ega bo'lsa-da, ularga bir qator cheklov va talablar o'rnatilgan. Shu sababli xodim funksional majburiyatlarini amalga oshirish davomida qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzilishiga yo'l qo'ymasligi uchun manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilishga majbur hisoblanadi. Bunda birinchidan manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rishi; ikkinchidan bunday holatlar yuzaga kelganligi yoki sodir bo'lishi mumkinligi to'g'risida bevosita rahbariga ma'lumot berishi; uchinchidan masalani hal qilish jarayonida o'z-o'zini chetga olish yoki rad berishni qo'llash zarur bo'ladi. Ushbu holatda davlat fuqarolik xizmatchisi bevosita rahbariga ma'lumot berish bo'yicha o'zi manfaatdor ekanligini e'tiborga olish lozim bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvi sodir bo'lganda xodimning shaxsiy manfaatlari va jamiyatga xos motivlarining qarama-qarshiligi yuzaga keladi. Manfaatlar to'qnashuvi esa xodimning o'z xizmat majburiyatlarini obyektiv amalga oshirishga to'sqinlik qilmasligi lozim. Shu sababli davlat fuqarolik xizmatidagi manfaatlar to'qnashuvidan xabardor qilib qo'yish instituti muhim ahamiyat kasb etadi va davlat vakolatlarini sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Ta'sir yo'nalishi bo'yicha manfaatlar to'qnashuvining quyidagi ko'rinishlarini ko'rsatib o'tish mumkin: rahnamolik, favoritizm (fr. favorit) himoya ostidagi ayrim xodimlarni yaqin olish va qo'llab-quvvatlash; proteksionizm (lot. ko'maklashish) - ma'lum bir shaxslarni lavozimga tayinlashga ko'maklashish; nepotizm (lot. nepos jivan) qarindosh-urug'chilik, hududiy yoki etnik prinsiplar asosida davlat tuzilmalarida yoki boshqa tuzilmalarda tor guruhchilik manfaatlar bilan ish ko'rish; kronizm (ingliz. hamfikir, tanish-bilishchilik, guruhbozlik) lavozimlarni tanish bilishchilik asosida do'stlarga berish. Bunday salbiy holatlar davlat fuqarolik xizmatida quyidagi oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

1) bir tomonlama ustuvorlik muhitini yaratib, teng raqobat sharoitlariga zid ravishda davlat resurslari va xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatini cheklaydi;

2) jamiyatda korrupsiyaning rivojlanishga zamin yaratadi. Transparency International kompaniyasining korrupsiyani qabul qilish indeksiga ko'ra, O'zbekiston 2021-yildan buyon har yili o'z mavqeini yaxshilab kelmoqda. Jumladan, 2021-yilda 28 ball bilan 141 o'rin, 2022-yilda 31 ball bilan 126 o'rin va 2023-2024-yillarda 33 ball bilan 121 o'rinni egallagan. Ushbu xalqaro tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurash borasida dunyo reytingida O'zbekistonga nisbatan bahosi yildan yilga yaxshilanib borayotgan bo'lsa-da, ushbu ko'rsatkichlar bizni qanoatlantirmaydi;

3) shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda lavozim doirasida qaror qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Bunda xodim o'z xizmat majburiyatlarini suiiste'mol qilishga harakat qiladi;

4) davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiradi va majud resurslardan samarasiz foydalanishga olib keladi;

5) manfaatlar to'qnashuvining keng tarqalishi natijasida ajratilayotgan resurslardan davlat va xalq manfaatlarini yo'lida emas, balki ushbu resurslarni ajratuvchilar manfaati yo'lida sarflanadi;

6) jamiyatda davlat tashkilotiga va davlat fuqarolik xizmatiga nisbatan salbiy fikrlarning shakllanishiga hamda shu orqali jamoatchilikning davlatga bo'lgan ishonchining pasayishiga olib keladi.

Tashkilotda manfaatlar to'qnashuvi shakllanishini faqat xodimning o'zi bilishini e'tiborga oldigan bo'lsak, bunday vaziyatni hal qiluvchisi ham aynan uning o'zi, ya'ni davlat xizmatchisi bo'lib qoladi. Bunday vaziyatda davlat fuqarolik xizmatchisi odob-axloqining rivojlanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Inson hayotining xohlagan kasbiy faoliyatida axloqiy tanlov muhim bosqich bo'lib, shaxs uchun prinsipial ahamiyatga ega jiddiy sinov jarayonidir. Davlat fuqarolik xizmatida axloqiy to'qnashuv holati empirik ko'rinishlarga ega bo'lib, xizmatni o'tash jarayonida uning bir nechta indikatorlarini ko'rsatib o'tish joiz: faoliyat intensivligi va sifatining pasayishi; emotsional bosim va stressning kuchayishi; o'ziga nisbatan ishonchning pasayishi, adaptatsiya mexanizmlarining buzilishi, ertangi kunga nisbatan ishonchsizlik, beqarorlikni his qilish, ijtimoiy beqarorlik, pessimistik kayfiyat va boshqalar. Bunday axloqiy to'qnashuv sharoitini davlat xizmatchisining ijtimoiy mavqei darajasidan qoniqishini quyidagilar bilan taqqoslash mumkin:

1) ishidan qoniqish;

2) ish haqidan qoniqish;

3) xodimning lavozim majburiyatlariga mos ravishda professional tayyorgarligi.

Bu borada 2024-yilda muallif tomonidan o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, respondentlarning deyarli yarmi (47,7%) hozirgi kundagi mehnat faoliyatidan to'la qoniqadi, 27,7% esa umuman qoniqmaydi, 7,6% asosan qoniqmaydi va 2,7% umuman qoniqmaydi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatining inson resurslarini boshqarish tizimida odob-axloq sifatleri kamdan kam holatlarida qo'llaniladi. Yoki xizmat faoliyatini bajarishda yuqori darajadagi odob-axloqi, namunali xulqi va madaniyati uchun rag'batlantirish esa kam uchraydigan holat hisoblanadi. Masalan, 2022-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari tomonidan o'tkazilgan yig'ilishda davlat xizmatchisi etikasiga nomunosib xatti-harakatlari, rahbarlik madaniyatini saqlamagani, o'tkazilgan qabullarda fuqarolarga hurmatsizlikka yo'l qo'ygani, rahbarlik etikasi qoidalariga rioya etmagani, o'z faoliyatini davlat siyosati va amalga oshirilayotgan islohotlarga mos ravishda tashkil qilmagani, hokimlarga qo'yiladigan talablarga rioya etmasdan majlis qatnashchilarini haqorat qilganligi va bu bilan keng

jamoatchilikning noroziligiga sabab bo'lgani natijasida bir qator rahbarlarga keskin choralar ko'rilgan [19].

Nazariy yondashuvlarda va qonunchilikda "manfaatlar to'qnashuvi" termini aniq izohlangan bo'lishiga qaramay, davlat va shaxsiy manfaatlar o'rtasidagi chegara har doim ham aniq belgilab berilmaganligi sababli amaliyotda uni ochib berish ancha murakkab jarayon bo'lib qolmoqda. Ular o'rtasidagi chegarani kuzatish qiyin bo'lib, ko'p vaqt va sarf-xarajatni talab qiladi. Shunga qaramay, vakolatli idoralar tomonidan tashkilotlarda yo'l qo'yilgan bir qator manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil davomida hududlarda jami 1625 nafar davlat xizmatchilari davlat xizmati bilan birga rahbar yoki ta'xischi sifatida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib kelayotganligi holatlari aniqlangan [20].

Boshqa holatda esa 2021-yil va 2022-yilning 5 oyi davomida 429,3 mlrd so'mlik 5805 ta davlat xaridlarida manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'yilgan. «Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida»gi Qonun ijrosi doirasida 2024-yilda 182 nafar xodimning yaqin qarindoshlari bevosita bo'ysunuvida ishlash holatlari aniqlangan, shuningdek 1513 nafar davlat xizmatchilari bir vaqtning o'zida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuvi holatlari qayd qilingan [21].

XULOSA

Umuman olganda, davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvi – tizimni samarali boshqaruviga va jamoatchilik ishonchi uchun jiddiy xavf bo'lib qoladi. Yuqorida qayd etilganlarni va mazkur muammoni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish orqali quyidagicha xulosa qilish mumkin: manfaatlar to'qnashuvi etika, huquqiy, boshqaruv nazariyasi va sotsiologik yondashuvlar kesishuvida bo'lgan muhim jarayon sifatida talqin qilinadi; davlat fuqarolik xizmatining huquqiy asoslari ishonchli va mustahkam bo'lishi, shuningdek sohada institutsional mexanizmlar, raqamli texnologiyalar va jamoada kuchli axloqiy muhitni shakllantirish orqali manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga imkoniyat yaratiladi; davlat fuqarolik xizmatchilarining etikasi va axloqiy madaniyatini yuksaltirish, ularning salohiyatini oshirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish tizimda manfaatlar to'qnashuvining eng muhim oldini olish choralari bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va unga qarshi kurashish har bir davlatning boshqaruv siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanishi, ilmiy asoslangan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi. Bu esa davlat boshqaruvining ochiqligi, shaffofligi, hisobdorligi va samaradorligining muhim sharti bo'lib qoladi.

Davlat fuqarolik xizmatidagi manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif qilinadi:

tashkilotlarda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha doimiy nazoratni amalga oshirish, xodimlarning rasmiy xulq-atvor va odob-axloq qoidalariga to'liq rioya qilishlariga erishish;

davlat fuqarolik xizmatchilarining moliyaviy ta'minoti va ijtimoiy ta'minot tizimini qayta ko'rib chiqish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xatti-harakatlaridan kelib chiqqan holda rag'batlantirish tizimini joriy qilish;

davlat fuqarolik xizmatiga ishga qabul qilishga jiddiy yondashish, bunda nomzodlarning axloqiy sifatleri va korrupsiyaga bardoshlilik bo'yicha psixologik xususiyatlarini chuqurroq o'rganishga e'tibor qaratish;

jamoatchilik tomonidan davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatini monitoring qilinishini ta'minlash;

davlat fuqarolik xizmatchilarining ayrim lavozimlarda xizmat qilish muddatlarini cheklash va lavozim majburiyatlarini sifatli bajarilishini ta'minlash maqsadida faoliyat samaradorligini ko'rsatkichlar asosida baholab borish.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. <http://www.oecd.org/gov/ethics/49107986.pdf>

2. <https://gufo.me/dict/bse/конфликт>
3. Дарендорф Р. Тропы из утопии. Работы по теории и истории социологии (сборник). – М., 2002. – С. 212-230.
4. Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. – Toshkent: «Yoshlar nashriyot uyi», 2020. – 436 b.
5. Вебер М. “Хозяйство и общество” (Wirtschaft und Gesellschaft). , общ. ред. и предисл. Л.Г.Ионина. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2019. –72 с.
6. Xolbekov A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi. – Toshkent: Akademiya, 2007. – В. 28.
7. Мертон Р. Социальная теория и социальная структура. – М.: АСТ МОСКВА: ХРАНИТЕЛЬ, 2006. 873с. // https://vk.com/doc5787984_384177047
8. Coser. The Functions of Social Conflict. The Free Press. New York. Collier-MacMillian limited, London. 1964. 29p; Dahrendorf, Class and Class Conflict in Industrial Society. Stanford University Press Stanford, California. 1959. 358с.
9. Социологические энциклопедия. – Т. 1. – М., 2003. – С. 382.
10. Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре Трактаты. – М.: «Канон пресс»; «Кучково поле». 1998. – 416 с.
11. Макиавелли Н. Государь. Рассуждения о первой декаде Тита Ливия. О военном искусстве. – М.: Мысль, 1992. // https://www.civisbook.ru/files/File/Makiavelli_Tit.pdf
12. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/corruption.shtml
13. The United Nations Anti-Corruption Toolkit was issued and printed with the support of the Ministry of Foreign Affairs (Development Cooperation) of The Netherlands and the Ministry of Foreign Affairs of Norway // https://www.unodc.org/documents/treaties/corruption/toolkit/toolkitv5_foreword.pdf
14. Recommendation of the Council on OECD Legal Instruments OECD Guidelines for Managing Conflict of Interest in the Public Service. OECD 2025 // <https://legalinstruments.oecd.org/public/doc/130/130.en.pdf>
15. Matibayev T.B. Korrupsiya – jamiyat taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omil. Academic research in educational sciences 4 (Periodical Collection 7), 63-70//<https://cyberleninka.ru/article/n/korrupsiya-zhamiyat-tara-iyotiga-salbiy-tasir-etuvchi-omil>.
16. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi «Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida»gi O‘RQ-931-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.06.2024-y., 03/24/931/0402-son; O‘zbekiston Respublikasining 2027-yil 3-yanvardagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘RQ-419-son Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 1; <https://lex.uz/uz/docs/6145972>
17. Mavlyanov U. va boshqalar. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat: 100 savolga 100 javob. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari mas’ul xodimlari uchun amaliy qo‘llanma.: – Toshkent: «ART LINE GROUP» MCHJ. 2024. – 96 b.
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi «Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi 595-sonli qarori // <https://lex.uz/pdfs/6236838>
19. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/09/28/administration/>
20. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining rasmiy sayti // <https://anticorruption.uz/uz>
21. 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar, natija va ko‘rsatkichlar// <https://anticorruption.uz/uz/article/>

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000